“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=310

2025-yil
2-son
iyul
ISSN 3093-8546



Fuqarolik huquqiy munosabatlarda shartnomalar instituti va uning o‘ziga xos xususiyatlari

Mirvohid Yaxshiboyev,
O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti yurisprudensiya:biznes huquqi yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
Huquqshunos
e-mail: yaxshiboyevmirvohid@gmail.com

Аннотация. Ushbu maqolada fuqarolik huquqiy munosabatlarning alohida muhim elementi bo‘lgan shartnomaviy munosabatlar, ularning huquqiy ta’rifi, taraflarning huquqiy maqomi va shartnomani davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bilan bog‘liq munosabatlar haqida ma’lumot berilgan.

Калит сўзлар. Fuqarolik kodeksi, shartnoma, yuridik shaxs, oferta, aksept, notarial tasdiqlash, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish.

Аннотация. В данной статье представлена информация о договорных отношениях как об одном из важных элементов гражданско-правовых отношений, их юридическом определении, правовом статусе сторон, а также о взаимоотношениях, связанных с государственной регистрацией договора.

Ключевые слова. Гражданский кодекс, договор, юридическое лицо, оферта, акцепт, нотариальное удостоверение, государственная регистрация.

Annotation. This article provides information on contractual relations as an important element of civil legal relations, their legal definition, the legal status of the parties, and matters related to the state registration of contracts.

Keywords. Civil Code, contract, legal entity, offer, acceptance, notarial certification, state registration.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining birinchi qismida bitimlar, shartnomalar to‘g‘risidagi umumiy qoidalar belgilangan bo‘lib, shartnoma tushunchasi, shartlari, uni tuzish, o‘zgartirish, bekor qilish tartibi, shuningdek taraflarning huquqiy maqomi to‘g‘risidagi qoidalar ikkinchi qismdagi barcha shartnomalarga taalluqlidir.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

“Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasida xo‘jalik shartnomasiga ta’rif berilgan bo‘lib unga muvofiq, taraflardan biri shartlashilgan muddatda tadbirkorlik faoliyati sohasida tovarlarni berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish majburiyatini oladigan, ikkinchi taraf esa tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni qabul qilib olish va ularning haqini to‘lash majburiyatini oladigan kelishuv xo‘jalik shartnomasi deyiladi[1].

Fuqarolik kodeksining 354-moddasiga muvofiq, fuqarolar, va yuridik shaxslar shartnoma tuzishda erkindirlar. Shartnoma tuzish burchi Fuqarolik kodeksida, boshqa qonunda yoki olingan majburiyatda nazarda tutilgan hollardan tashqari taraflarni shartnoma tuzishga majbur qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Taraflar qonunchilikda nazarda tutilmagan shartnomalarni, shuningdek turli shartnoma elementlarini o‘z ichiga oladigan aralash shartnomalarni ham tuzishlari mumkin.

Agar qonunda muayyan turdagi shartnomalar uchun malum bir shakl belgilab qo’yilgan bo’lmasa, shartnoma bitimlar tuzish uchun nazarda tutilgan har qanday shaklda, ya’ni og‘zaki yoki yozma (oddiy yoki notarial tasdiqlangan) shaklda tuzilishi mumkin.

Qonunchilikda yoki taraflarning kelishuvida yozma shakl belgilab qo’yilmagan, jumladan, u tuzilayotgan vaqtning o’zidayoq bajariladigan shartnoma og’zaki tuzilishi mumkin. Shaxsning xatti-harakatlaridan uning shartnoma tuzishga bo’lgan xohish-irodasi bilinib turgan holda ham bunday shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Jeton, patta yoki odatda qabul qilingan boshqa belgi berish yo‘li bilan tasdiqlangan shartnoma, agar qonunchilikda boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, og‘zaki tuzilgan shartnoma hisoblanadi.

Notarial tasdiqlanishi yoki davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi shart bo‘lgan shartnoma notarial tasdiqlangan yoki ro‘yxatdan o‘tkazilgan paytdan e’tiboran, notarial tasdiqlanishi va ro‘yxatdan o‘tkazilishi zarur bo‘lganda esa — shartnoma ro‘yxatdan o‘tkazilgan paytdan e’tiboran shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Agar taraflar shartnomani muayyan shaklda tuzishga kelishgan bo‘lsalar, garchi qonunda bu turdagi shartnomalar uchun bunday shakl talab qilingan bo‘lmasa-da, shartnoma belgilangan shaklga keltirilganidan keyin tuzilgan hisoblanadi.

Yozma shartnoma taraflar imzolagan bitta hujjatni tuzish yo‘li bilan, shuningdek pochta, telegraf, teletayp, telefon, elektron aloqa yoki hujjat shartnomadagi tarafdan chiqqanligini ishonchli suratda aniqlash imkonini beradigan boshqa aloqa yordamida hujjatlar almashish yo‘li bilan tuzilishi mumkin.

Shartnoma taraflardan birining oferta (shartnoma tuzish uchun taklif) yo’llashi va ikkinchi taraf uni akseptlashi (taklifni qabul qilishi) yo’li bilan tuziladi.

Fuqarolik kodeksining 367-moddasiga muvofiq, bir yoki bir necha muayyan shaxsga yuborilgan, yetarli darajada aniq bo‘lgan va taklifni kiritgan shaxsning o‘zini taklif yo‘llangan va uni qabul qiladigan shaxs bilan shartnoma tuzgan deb hisoblash niyatini ifoda etadigan taklif oferta hisoblanadi.

Ofertada shartnomaning muhim shartlari ifoda qilingan bo‘lishi kerak. Oferta uni yo‘llagan shaxsni oferta yo‘llangan shaxs bilan u ofertani olgan

paytdan boshlab bog‘laydi. Agar ofertani chaqirib olish to‘g‘risidagi bildirish ofertaning o‘zidan oldin yoki u bilan bir vaqtda kelgan bo‘lsa, oferta olinmagan hisoblanadi. Odatda oferta chaqirib olinmaydi.

Qabul qiluvchi taraf olgan oferta uni akseptlash uchun belgilab qo‘yilgan muddat mobaynida chaqirib olinishi mumkin emas, basharti boshqacha tartib ofertaning o‘zida shart qilib qo‘yilgan bo‘lmasa yoki taklifning mohiyatidan yoxud u yo‘llangan paytdagi vaziyatdan anglashilmasa[2].

Amaldagi qonunchilik ofertaga taklif etish va ommaviy oferta kabi usullarni nazarda tutadi.

Jumladan, Fuqarolik kodeksining 369-moddasiga muvofiq, nomuayyan shaxslar doirasiga yo‘llangan reklama va boshqa takliflar, agar taklifda boshqacha hol to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilgan bo‘lmasa, ofertaga taklif etish deb qaraladi.

Shartnomaning barcha asosiy shartlarini o‘z ichiga olgan, taklif kiritayotgan shaxsning javob qaytargan har qanday shaxs bilan taklifda ko‘rsatilgan shartlar asosida shartnoma tuzishga bo‘lgan xohish-irodasi bilinib turgan taklif oferta (ommaviy oferta) hisoblanadi.

Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq oferta yuborilgan shaxsning uni qabul qilganligi haqidagi javobi aksept hisoblanadi.

Aksept to‘liq va pisandasiz bo‘lishi kerak. Agar qonundan, ish muomalasi odatidan yoki taraflarning ish bo‘yicha avvalgi munosabatlaridan boshqacha ma’no kelib chiqmasa, sukut saqlash aksept bo‘lmaydi.

Ofertani akseptlash uchun belgilangan muddatda olgan shaxsning unda ko‘rsatilgan shartnoma shartlarini bajarish yuzasidan qilgan harakatlari (tovarlarni jo‘natish, xizmatlar ko‘rsatish, ishlar bajarish, tegishli summani to‘lash va h. k.), agar qonunchilikda yoki ofertada boshqacha tartib nazarda tutilmagan yoki ko‘rsatilmagan bo‘lsa, aksept hisoblanadi[3].

Agar akseptni chaqirib olish haqidagi bildirish oferta yuborgan shaxsga akseptdan oldinroq yoki u bilan bir vaqtda yetib kelgan bo‘lsa, aksept olinmagan hisoblanadi.

Ofertada aksept muddati ko‘rsatilgan bo‘lsa, aksept oferta yo‘llagan shaxs tomonidan unda ko‘rsatilgan muddat mobaynida olinsa, shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Yozma ofertada aksept muddati ko‘rsatilmagan aksept oferta yo‘llagan shaxs tomonidan qonunchilikda belgilab qo‘yilgan muddatlarda, agar bunday muddat belgilab qo‘yilgan bo‘lmasa — buning uchun normal zarur bo‘lgan vaqt mobaynida olinsa, shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Oferta aksept uchun muddat ko‘rsatmasdan og‘zaki tarzda qilinganida boshqa taraf uni akseptlaganini darhol aytgan bo‘lsa, shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Aksept to‘g‘risida o‘z vaqtida yo‘llangan bildirish kechikib olingan hollarda oferta yo‘llagan taraf boshqa tarafga aksept kechikib olinganini darhol bildirib qo‘ymasa, aksept kechikkan hisoblanmaydi.

Agar oferta yo‘llagan taraf boshqa tarafga uning kechikib olingan akseptini qabul qilganini darhol ma’lum qilsa, shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Ofertada taklif qilinganidan boshqacha shartlar asosida shartnoma tuzishga rozilik bildirish haqidagi javob aksept hisoblanmaydi. Bunday javob akseptdan bosh tortish va ayni vaqtda yangi oferta hisoblanadi. Agar shartnomada uning tuzilgan joyi ko‘rsatilgan bo‘lmasa, shartnoma oferta

yo‘llagan fuqaroning yashash joyida yoki yuridik shaxsning joylashgan yerida tuzilgan hisoblanadi[4:592].

Umumiy qoidaga ko‘ra, faks orqali tuzilgan shartnoma uning tuzilganligini bildirsa-da, taraflarning imzolari va muhrlari asl nusxada emasligi sababli sud tomonidan inobatga olinmasligi va shartnomaning asl nusxasini taqdim etish imkoniyati bo‘lmaydi.

Shu sababli ham agar faks orqali tuzilgan shartnoma shartlari taraflarni qoniqtirsa va ikkala taraf tomonidan so‘zsiz ijro etilsa, shartnoma bo‘yicha taraflar o‘rtasida nizo chiqmasa, uni tuzilgan deb hisoblash mumkin.

Bugungi kunda fuqarolar va yuridik shaxslar shartnomaviy huquqiy munosabatlarga kirishayotganda shaxsan o‘zlari yoki vakillari orqali tuzishlariga yo‘l qo‘yiladi. Har ikki holatda ular shartnoma taraflari hisoblanadi va shartnomalarni o‘z xohish-irodasi orqali tuzishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

“Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni, 29.08.1998-yil. 670-I-son.

O‘zbekiston Respubliksi Fuqarolik kodeksi. 01.03.1997.

O‘zbekiston Respubliksi Fuqarolik kodeksi. 01.03.1997.

Topildiyev V.R. Fuqarolik huquqi. Darslik. Umumiy qism. Toshkent; Yuridik adabiyotlar publish. 2022-yil. 592-bet